



QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARI FAOLIYATINI BOSHQARISHDA LOGISTIKA AXBOROT TIZIMLARINI JORIY ETISH MEKANIZMLARI

Nazarov Husanbek Avazbek o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tayanch doktoranti,
Oziq ovqat texnologiyasi va muhandisligi xalqqaro instituti o'qituvchisi
E-mail: xusanbeknazarov13@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 24-mart 2024-yil
Tasdiqlandi: 26-mart 2024-yil
Jurnal soni: 10
Maqola raqami: 15
DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v10i10.909>

KALIT SO'ZLAR/ Ключевые слова/ keywords

Logistika, logistika axborot tizimlari,
logistika axborot tizimi tashkiliy tuzilmasi,
logistika jarayonlari, transport, ombor
operatsiyalari, zaxirani boshqarish,
yuklarni tashish operatsiyalari, axborot
kommunikatsiya ta'minoti.

ANNOTATSIYA

Ilmiy maqolada logistika axborot tizimlari tushunchasi, qishloq xo'jaligi korxonalarida logistika axborot tizimlarini joriy etish, logistika axborot tizimlari qanday asosiy vazifalarni bajarishi kerakligi, logistika axborot tizimining tashkiliy tuzilmasi, axborot logistika tizimlari qanday talablarga javob berishi, logistika operatsiyalarini amalga oshirish bo'yicha qishloq xo'jaligi korxonalarini harakatlarining asosiy yo'nalishlari hamda logistika axborot tizimi qanday imkoniyatlarni yaratishi keng yoritib berilgan.

Kirish. Logistika axborot tizimlari, bozor mexanizmining muhim qismi bo'lib, moddiy, moliyaviy va axborot oqimlaridan samarali foydalanish orqali bozor ishtirokchilari manfaatlarini amalga oshirish va uyg'unlashtirish uchun yaratilgan. Logistika axborot tizimlarini shakllantirish, boshqarish jarayonlari va ularning faoliyatining iqtisodiy mexanizmi ularni doimiy ravishda takomillashtirishni talab qiladi. Logistika axborot tizimlarini, bir tomondan asosiy logistika qoidalariga (izchillik, ratsionallik va aniq hisoblash) asoslangan korxonada axborot resurslarini boshqarish tizimi, ikkinchi tomondan logistika menejmentini qo'llab-quvvatlovchi funksiyasi yoki funksional sohasi sifatida ko'rib chiqish mumkin. Ushbu ikki yondashuv qaramaqarshi emas va so'zning keng va tor ma'nosida axborot logistikasining ta'riflari sifatida talqin qilinishi mumkin.

Mamlakatimizda ijtimoiy iqtisodiy masalalar va vazifalarni hal etishda raqamlashtirish va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini ahamiyatini muhimligini e'tiborga olgan holda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston 2030 strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish choratadbirlari to'g'risidagi Farmoni (O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivoj, 2022), O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi davlat boshqaruviga raqamli iqtisodiyot, elektron hukumat hamda axborot tizimlarini joriy etish bo'yicha qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risidagi Farmoni (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5598-so, 2018), O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish choratadbirlari to'g'risidagi qarori (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5598-so, 2018), O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida raqamli infratuzilmani yanada modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risidagi (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4699 so, 2020) qarorlari qabul qilingan bo'lib, korxonalarda logistika axborot tizimlarini keng joriy etishga huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili. Raqamli texnologiyalarni logistika axborot tizimiga joriy etish, AKTDan milliy iqtisodiyotimizning turli sohaslarida foydalanish muammolari yetakchi iqtisodchi olimlar va mutaxassislar, iqtisodiy informatika va avtomatlashtirilgan boshqaruv axborot tizimlari sohasida bir qator iqtisodchi olimlarning fikrlari keltirilib o'tilgan.

I.I.Sidorov logistika axborot tizimlariga quyidagicha ta'rif keltirgan, logistika axborot tizimlari, birinchi navbatda, korxonani boshqarishga logistika yondashuviga asoslanadi, uning moddiy resurslar harakatining an'anaviy boshqaruvidan tubdan farqiyetkazib berish, ishlab chiqarish va sotish jara- yonining oqimga yo'naltirilgan ifodasidir (Istamovich S. B., 2023).

S.I.Kolesnikov fikriga ko'ra logistika menejmenti korxonada resurslari va ta'minot, ishlab chiqarish va marketing jarayonlarini taqdim etishga ma'lum tarkibiy yondashuvni talab qiladi. Korxonada mahsulot ishlab chiqarish va sotish siklining barcha bosqichlarida iste'molchi, ishlab chiqaruvchi va resurslar yetkazib beruvchini

bog'laydigan moddiy va axborot oqimlari tizimi sifatida qaralad (Istamovich S. B., 2023).

R.Ballou bergan ta'rifiga ko'ra logistika menejmentini joriy etish korxonaga ishlab chiqarish, yetkazib berish va sotish jarayonida zarur bo'lgan barcha turdagi materiallar, butlovchi qismlar va tayyor mahsulotlar zaxiralarini sezilarli darajada qisqartirish, aylanma mablag'lar aylanmasini tezlashtirish, ishlab chiqarish tannarxini kamaytirish va ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish imkonini beradi. (Avazbek O'g'li, N. X, 2019)

O. Novikov fikricha korxonalariga logistika axborot tizimlarini joriy etishda dasturiy mahsulotlarni muvaffaqiyatli ishlashi, xodimlarni o'qitish va texnik xizmat ko'rsatish uchun katta miqdordagi xarajatlarni talab qiladi (Nazarov, 2023).

B.Sergeyev tomonidan berilgan ta'rifga ko'ra ishlab chiqarishning aksariyat qismida logistika tizimlari korxonalar mavjud emas, ba'zi hollarda qayta qurishdan oldingi davrda yaratilgan zaxiralarni boshqarish tizimlari mavjud. Ushbu tizimlar logistikaning klassik kontseptsiyasiga asoslanadi. (Maxkamovich A. A., Avazbek O'g'li N. X., 2023)

Z.Satskaya fikriga ko'ra logistika axborot tizimlarini joriy etishda korxonada axborot-logistika tizimi yopiq emas, u korxonaning tashqi muhiti va korxonaning umumiy axborot tizimi uchun yopiq hisoblanadi. (Сацкая З., 2000)

B.Plotnik ishlab chiqarishning aksariyat qismida logistika tizimlari korxonalar mavjud emas, Ba'zi hollarda qayta qurishdan oldingi davrda yaratilgan zaxiralarni boshqarish tizimlari mavjud. Ushbu tizimlar logistikaning klassik kontseptsiyasiga asoslanadi. (Плоткин Б.К, 1991)

M.Makarenko logistika tizimlarini rivojlantirish bosqichlaridan tashqari, logistika kontseptsiyasining o'zi evolutsiya bosqichlarini va logistika tizimlarining samaradorligi mezonlarini qayd etish kerak. Ma'lumki, logistika boshqaruvining iqtisodiy samarasi o'zaro kelishuvlardan foydalanishdan kelib chiqadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot olib borish davomida monografik tahlil hamda ekspert va tizimli tahlil usullaridan foydalangan holda korxonalarda logistika axborot tizimlarini joriy qilish bo'yicha, logistika operatsiyalarini amalga oshirish bo'yicha korxonalar harakatlarining asosiy yo'nalishlari, logistika axborot tizimlarini shakllantirish va boshqarish jarayonlari va ularning faoliyatidan kelib chiqib qishloq xo'jaligida axborot telekommunikatsiya mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha takliflar tayyorlandi.

Tahlil va natijalar

Birinchi holda, axborot logistikasi logistika menejmentining funksional sohasini yoki logistikaning umumiy nazariyasini ta'minlaydi. Uni o'rganish obyektini moddiy oqimlarga hamroh bo'lgan axborot oqimlari bo'lib, asosiy maqsad logistika tizimlarini kerakli vaqtda, kerakli hajmda, kerakli joyda va maqbul xarajatlar va ma'lumot bilan ta'minlashdir. Ikkinchi holda, axborot logistikasi – bu logistika

qoidalariga (ratsionallik, o'z vaqtida, aniq hisoblash) asoslangan holda butun tashkilotga ma'lumot beradigan tizim hisoblanadi.

Logistika axborot tizimlari quyidagi asosiy vazifalarni bajarishi kerak:

- logistika tizimining boshqaruv organlarini buyurtmaning harakati haqida doimiy ishonchli ma'lumotlar bilan ta'minlashi kerak;
- korxonaning funksional bo'linmalari xodimlarini doimiy ravishda haqiqiy vaqtda ta'minot zanjiri bo'ylab mahsulotlarning harakati haqidagi ma'lumotlar bilan ta'minlashi zarur;
- boshqaruv uchun investitsiya qilingan mablag'lardan foydalanish to'g'risidagi ma'lumotlarning shaffofligini ta'minlash;
- korxonani strategik rejalashtirish uchun axborotlar bilan doimiy ta'minlash;
- iste'molchilar buyurtmalarini bajarish muddatlarini baholash imkoniyatini ta'minlash;
- korxonada resurslarini qayta taqsimlash imkoniyatini ta'minlash;
- logistika biznes jarayonlarini optimallashtirish orqali korxonaning rentabelligini ta'minlash.

Logistika axborot tizimlari logistika jarayonlarini boshqarish uchun avtomatlashtirilgan axborotlar tizimlaridir.

Shunday qilib, logistika axborot tizimlarida dasturiy ta'minot – bu moddiy oqimlarni boshqarish, matnini qayta ishlash, ma'lumotlarini olish va texnik vositalarning ishlashini ta'minlaydigan dasturlar va dasturiy vositalar to'plami hisoblanadi. Logistika axborot tizimlari dasturiy yechimlarning eng yuqori darajadagi integratsiyasi bilan tavsiflanadi, bu ularni ishlab chiqish va amalga oshirishning o'ziga xos shartlarini belgilaydi. Shunga asosan, logistika sohasidagi axborot tizimini logistika tizimining ishlashini rejalashtirish, tartibga solish, nazorat qilish va tahlil qilish uchun logistika menejmenti tomonidan foydalaniladigan axborot oqimi bilan birlashtirilgan odimlar, uskunalar va protseduralarni o'z ichiga olgan interaktiv tuzilma sifatida aniqlash mumkin. Shuningdek, jahonda aksariyat olimlar, mashhur marketolog F.Kotler fikriga ko'ra logistika axborot tizimining tashkiliy tuzilishi marketing axborot tizimlarining tuzilishiga o'xshashligiga qo'shiladilar.

Logistika axborot tizimlari alohida korxonada darajasida moddiy oqimlarni boshqarish maqsadida yaratilishi mumkin va mintaqalar, mamlakatlar va hatto mamlakatlar guruhlarida logistika jarayonlarini tashkil etishga hissa qo'shishi mumkin. Logistika axborot tizimi elektron hisoblash uskunalar ishi- ni logistika menejerlarining harakatlari bilan o'zaro bog'laydigan va ular uchun mavjud bo'lgan to'g'ri ma'lumotlarni olishlarini ta'minlaydigan, logistika operatsiyalarini rejalashtirish va bajarish jarayonlarini tashkil etish va amalga oshirishga imkon beradigan tizim sifatida tavsiflanadi.

Funksional nuqtayi nazardan, logistika axborot tizimi to'rt darajali ierarxiya tizimi bo'lib, bu yerda birinchi bosqichda logistika axborot tizimi yordamida aniq operatsiyalar masalalari hal qilinadi, buyurtmalarni qabul qilish, mahsulotlarni jo'natish, mahsulotlarni hisobga olish, yuklarni jo'natishga tayyorlash, kiruvchi xomashyoni qabul qilish, ombor operatsiyalari va boshqalar. Ikkinchi darajada buxgalteriya hisobi va nazorat masalalari hal qilinadi, inventarizatsiyani boshqarish, ombor maydoni- ning mavjudligini hisobga olish, mahsulotlarni tashish jarayonini nazorat qilish, hisobvaraqlardagi

buxgalteriya operatsiyalari, hisobvaraqlardagi mablag'larning harakati masalalari va boshqalar. Uchinchi darajada tahliliy masalalar hal qilinadi, marketing operatsiyalarini qo'llabquvvatlash uchun logistikadan foydalanish (sotishni rag'batlantirish), buyurtmalar prognozi va ularni bajarish imkoniyatlari hamda moliyaviy rejalashtirish, shu jumladan, logistika bilan bog'liq xarajatlar tahlil qilinadi.

Logistika axborot tizimi bu xodimlarni o'z ichiga olgan interaktiv tuzilma, uskunalar va protseduralar (texnologiyalar) ishlatiladigan axborot oqimi bilan birlashtirilgan logistika boshqaruvi tomonidan faoliyatni rejalashtirish, tartibga solish, nazorat qilish va tahlil qilish tizimidir.

Axborot logistika tizimlari quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- o'lchovlilik (agar kerak bo'lsa, tizimning bitta foydalanuvchini ham, bir nechta foydalanuvchini ham qo'llab quvvatlash qobiliyati);
- tarqatish (tizimning korxonaning bir nechta geografik jihatdan ajratilgan bo'linmalari yoki bir biridan bir nechta uzoq ish joylari tomonidan hujjatlarini birgalikda qayta ishlashni ta'minlash qobiliyati);
- modullik (tizimning foydalanuvchilarga kompaniya faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari va murakkabligi asosida tizim funksiyalarini sozlash va tanlash qobiliyatini ta'minlash qobiliyati, ya'ni avtomatlashtirish tizimi moslashuvchan va bir biri bilan birlashtirilgan alohida modullardan iborat (sotish, omborxonalar, xaridlar, ishlab chiqarish, xodimlar, moliya, transport);
- ochiqlik (avtomatlashtirish tizimining boshqa axborot tizimlariga qo'shilish qobiliyati, yangi dasturlarni ishlab chiqish va boshqa tizimlar bilan integratsiya qilish uchun ochiq interfeyslarning mavjudligi).

Logistikada axborot tizimlarining o'ziga xos xususiyati bu teskari aloqaning mavjudligidir. Teskari aloqa bu boshqaruv obyektining holati haqidagi ma'lumotlarni boshqarish obyektiga uzatish jarayoni bo'lib, logistikada boshqaruv qarorlari ularning to'g'ri borishini ta'minlash uchun ma'lumotlar to'planadi va keyingi qarorlarni qabul qilish uchun tahlil qilinadi. Logistika sohasidagi axborot tizimlari teskari aloqa bo'lishi kerak, bu boshqaruv qarorlari natijalarining axborot tizimini rivojlantirishga ijobiy ta'siri bilan tavsiflanadi, ularning o'zgarishi, o'z navbatida, boshqaruv qarorlarini qabul qilish sifati va samaradorligini oshiradi. Ishlab chiqarish va sotish tizimi, logistika boshqaruv organlari va ma'lumotlarni yig'ish, uzatish, saqlash va qayta ishlash tizimi- ning umumiyliги yopiq boshqaruv tizimini tashkil etadi, bu unga tashqi va boshqaruv ta'sirlari kiritilishi bilan farq qiladi, ya'ni, boshqariladigan obyektidan boshqaruv moslamasiga keladi. Masalan, savdo hajmi va mijozlar haqida ma'lumot korxonada miqdori, nomenklaturasi va o'zgarishi to'g'risida logistika qarorlarini qabul qilish uchun ishlab chiqarilgan va yetkazib beriladigan mahsulotlarning sifati, bu esa o'z navbatida savdo hajmi oshishiga olib keladi. Bu avtomatik tartibga solish va boshqarish nazariyasida ma'lum bo'lgan tartibga solinadigan parametr bo'yicha teskari aloqa prinsipiga mos keladi.

Korxonalarda logistika operatsiyalarini amalga oshirish bo'yicha korxonalar harakatlariga bevosita transport, ombor operatsiyalari, zaxirani boshqarish, yuklarni tashish operatsiyalari hamda axborot kommunikatsiya ta'minoti kiradi (1-jadval).

1-jadval

Logistika operatsiyalarini amalga oshirish bo'yicha korxonalar harakatlarining asosiy yo'nalishlari

Funksional yo'nalishlar	Harakatlar
Transport	- kompaniyaga yetkazib berishni tashkil etish; - xalqaro transportni tashkil etish; - tashuvchi kompaniyani tanlash; - transport turini tanlash; - jamoat transporti yoki kompaniya transportidan foydalanish.
Ombor operatsiyalari	- omborlarni boshqarish; - ombor operatsiyalarini rejalashtirish; - tarqatish markazini boshqarish; - markaz ishini rejalashtirish; - omborlar yoki markazlarning joylashishini tanlash.
Zaxirani boshqarish	materiallarni sotib olish (xomashyo, yarim tayyor mahsulotlar); xomashyo zaxiralarini shakllantirish - tayyor mahsulot zaxiralarini saqlash; - ehtiyot qismlar va almashtirish; - zaxiralarini saqlash uchun ularga texnik xizmat ko'rsatish; - qaytarilgan yuk bilan ishlash.

Yuklarni tashish operatsiyalari	- qadoqlash va etiketlash ishlari; - yuklash va tushirish operatsiyalari; - yuk chiqindilaridan foydalanish.
Axborot-kommunikatsiya ta'minoti	- buyurtmalarni hisobga olish va qayta ishlash; - mahsulotlarga talab prognozi; - ta'minotni rejalashtirish.

Manba: muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.

Raqamni kamaytirish, axborot oqimlarini soddalashtirish va shuning uchun logistika xarajatlarini kamaytirish usullaridan biri bu uchinchi tomon axborot tahlil markazlaridan foydalanishdir. Logistika markazlarini boshqaradigan bunday axborot-tahlil markazlari, qoida tariqasida internetga ulangan mahalliy tarmoqqa ulangan zamonaviy kompyuterlar bilan jihozlangan, murakkab va yetarlicha rivojlangan dasturiy ta'minotga ega.

So'nggi yillarda internet global axborot tarmog'i logistika menejmenti uchun tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu, boshqa narsalar qatori, ta'sir ko'rsatadigan asosiy logistika funksiyalarini tezkor bajarilishini ta'minlaydi:

- tashish (avtomobillar parkini taqsimlash "bo'sh" yurishlarni bartaraf etish, parkni doimiy nazorat qilish);
- saqlash (o'z vaqtida texnika);
- yetkazib beruvchi va oluvchi o'rtasidagi aloqalarni saqlash, bu sizga kontragentlar omborlaridagi buyurtmalar holatini tezda kuzatib borish imkonini beradi.
- zaxiralarni saqlash (ularni yetkazib beruvchilarning yelkasida saqlash tashvishlarini o'zgartirish);
- buyurtma berish va yetkazib berish jarayonlari (buyurtmalarni topshirish va yetkazib berish usullarini soddalashtirish);
- mijozlar xizmati.

Shuningdek, kompyuter tizimlari bilan bir qatorda yoki ular bilan o'zaro aloqada biznesni boshqarishni osonlashtiradigan ofis uskunalarini sohasidagi jiddiy yutuqlarni eslatib o'tish kerak. Avvalo, ba'zan shaxsiy kommunikatorlar, shuningdek, ilmiy kalkulyatorlar deb ataladigan mobil telefonlarning so'nggi avlodini ta'kidlash lozim.

Mahsulotlarni reklama qilish va zaxiralarni saqlash jarayonlarini amalga oshirish, shuningdek, axborot logistika jarayonlarini amalga oshirish uchun turli xil texnik vositalardan foydalanish kerak. Ushbu vositalar, ulardan foydalanish usullari, shuningdek, ularning ishlashini ta'minlash tizimlari logistika jarayonlarining o'ziga xos infratuzilmasini tashkil qiladi. U barcha asosiy logistika funksiyalarini uzluksiz va tejamkor ishlashini ta'minlashga yordam beradi. Logistika jarayonlarining axborot oqimlari ommaviy xarakter, operatsion ishlov berish zarurati (real vaqtda), boshqaruv jarayonida axborot va uning tashuvchilaridan ko'p foydalanish bilan tavsiflanadi. Bularning barchasi tegishli axborotni qayta ishlash vositalari va texnologiyalaridan foydalanish uchun obyektiv sharoit yaratadi.

Sanoat korxonalarida logistikani yanada faol qo'llash imkonini beradi:

- hamkorlar bilan aloqalarni tashkil etish;
- kamaytirish hamda uzilishlar;
- ishlab chiqarish bo'yicha bozorga e'tibor qaratish;
- rahbarlarning mahsulot inventarizatsiya;
- sifatni yaxshilash uchun qo'shimcha mahsulotlar;
- ishlab chiqarish va omborxonadan foydalanishni yaxshilash;

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasi – Qishloq xo'jaligi transformatsiyasi 2030 - - matn: elektron.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5598-sonli "O'zbekiston Respublikasi davlat boshqaruviga raqamli iqtisodiyot, elektron hukumat hamda axborot tizimlarini joriy etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni. 2018-yil 13-dekabr.
3. Korobeynikova, E.V. Digital Transformation Of Russian Economy: Challenges, Threats, Prospects. 2019. pp. 1418-1428.
4. Ashurmetova N.A. Qishloq xo'jaligida innovatsion texnologiyalarni iqtisodiy baholash tizimlarining tahlili // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 3, may-iyun, 2018 yil.
5. "Raqamli O'zbekiston –2030 strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-sonli farmon. 2020-yil 5-oktabr.

- har tomonlama hisobga olish, barcha tovarlar uchun transport xarajatlari.

Jumladan, nafaqat transport bo'linmalarining ishini yaxshilash, balki yetkazib berish, sotish va tashish bo'yicha ishlar majmuasini muvofiqlashtirish orqali ham erishiladi (Nazarov, 2023).

Xulosa va takliflar.

Hukumat darajasida logistika axborot tizimlarini rivojlantirish dasturlari ishlab chiqib, unga ko'ra asosiy harakatlar transport va logistika, ulgurji va logistika markazlarini rivojlantirishga, ombor infratuzilmasini rivojlantirishga va ushbu sohada malakali mutaxassislarni tayyorlashga yo'naltirish kerak.

Shunday qilib, mamlakatimizda logistikaning faol rivojlanishi, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning sifat darajasiga e'tiborning kuchayishi, biznes tashkilotlaridagi tarkibiy o'zgarishlar, axborot texnologiyalarining rivojlanishi moddiy va tegishli oqimlarni doimiy ravishda kuzatib borish, logistika tushunchalarini ishlab chiqarishga joriy etish va korxonaning ichki va jahon bozorida raqobatbardoshligini oshirishga sharoit yaratadi.

Tadqiqotlarimiz natijasiga ko'ra, logistika axborot tizimlari barcha logistika xarajatlarining 20 foizini tashkil qiladi, uskuna va uning ishlashi axborot tizimlarining ko'lami va murakkabligini oshirishga imkon beradi. Ko'p darajali avtomatlashtirilgan materiallar oqimini boshqarish tizimlarini yaratish bilan bog'liq katta xarajatlar, asosan dasturiy ta'minotni ishlab chiqish sohasiga to'g'ri keladi. Bu axborot tizimining ko'p qirraliligini va uning yuqori darajadagi integratsiyasini ta'minlashi kerak bo'ladi. Har qanday logistika axborot tizimini qurish uchun asos foydalanuvchi uchun ma'lumotlarning to'liqligi va foydaliligi, axborotning aniqligi, maksimal qisqartirish hisobiga axborotni o'z vaqtida taqdim etish, tadbir va uning logistika axborot tizimida namoyish etilishi o'rtasidagi vaqt oralig'i, xarajatlarni kamaytirishning qo'shimcha imkoniyatlarini aniqlashga e'tibor qaratish, axborot tizimi tuzilishining moslashuvchanligi, agar kerak bo'lsa, qayta ko'rib chiqish va tuzatishga tayyorligini anglatadi hamda nafaqat tashkilot ichidagi foydalanuvchilar, balki undan tashqaridagi foydalanuvchilar (soliq inspeksiyasi, bojxona organlari, ekspeditorklik kompaniyalari) o'rtasida ham ma'lumotlar almashinuvini ta'minlaydigan mos ma'lumotlar formati kabi prinsiplarga asoslanishi kerak.

Tadqiqotlarimiz natijasiga ko'ra, logistikadagi axborot tizimlari dasturiy yechimlarning eng yuqori darajadagi integratsiyasi bilan tavsiflanadi, bu ularni ishlab chiqish va amalga oshirishning o'ziga xos shartlarini belgilaydi. Shunga asoslanib, logistika sohasidagi axborot tizimini, logistika tizimining ishlashini rejalashtirish, tartibga solish, nazorat qilish va tahlil qilish uchun logistika menejmenti tomoni dan foydalaniladigan axborot oqimi bilan birlashtirilgan xodimlar, uskunalar va protseduralar (texnologiyalar) ni o'z ichiga olgan interaktiv tuzilma sifatida aniqlash

6. Istamovich S. B. Qishloq xo'jaligida yangi texnologiyalarni iqtisodiyotda foydalanishi //SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR. – 2023. – T. 1. – №. 5. – C. 205-208.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4699 sonli "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. 2020-yil 28-aprel.
8. Avazbek O'g'li, N. X. (2023). Multiservisli Tarmoqni Tezkor Boshqarish Usullari. O'zbekistonda Fanlararo Innovatsiyalar Va Ilmiy Tadqiqotlar Jurnal, 2(17), 611-615.
9. Nazarov X., Isomiddinov I. Raqamli Iqtisodiyotga O'tish Jarayonidagi Muammolar Va Yechimlar //Nashrlar. – 2023. – S. 366-369.
10. Maxkamovich A. A., Avazbek O'g'li N. X. Qishloq Xo'jaligi Tarmog'ini Zamonaviy Axborot Texnologiyalari Orqali Raqamlashtirish Va Innovatsiyalarni Jadallashtirish Istiqbollari //Qo'qon Universiteti Xabarnomasi. – 2023. – T. 9. – S. 26-30.

11. Сацкая З. Логистика логистике рознь //Специальное приложение к журналу «Эксперт»: Оборудование (рынок, предложение, цены). - 2000. - №7. - С.6-7.
12. Плоткин Б.К. Основы логистики: Учебное пособие. - Л.:ЛФЭИ, 1991. -54с.
13. Макаренко М.В., Канке А.А. Производственная логистика: Уч. Пособие. В 2-х ч. - Ч.1. - М.: Изд-во ГАУ им. С. Орджоникидзе, 1996. - 159с.
14. Информационные технологии и системы в логистике : курс лекций для студентов специальности 1-26 02 05
15. «Логистика». В 2 ч. Ч. 1. Информационные потоки и технологии в логистике / А. П. Гуменников. – Гомель : учреждение образования «Белорусский торгово-экономический университет потребительской кооперации», 2011. – 68 с.
16. www.review.uz.
17. www.agro.uz.